

"O'zkiyosanoat" AJ Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasining 2023-yil I chorak yakunlari yuzasidan hisobot yig'ilishi o'tkazildi

// 27.04.2023

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/komplayens-xizmatining-2023-yil-i-chorak-yuzasidan-hisobot>



"O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalari Komplayens xizmati tomonidan 2023-yilning I choraki davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi hisobot yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Unda "O'zkiyosanoat" AJ Komplayens xizmati tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan quyidagilar ma'lum qilindi.

Hisobot davrida "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.01.2022-yildagi Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining

samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zbekimiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni yagona mezon asosida baholash tizimi joriy etildi. Mazkur baholash tizimiga 5 ta yo'nalishda 29 ta maxsus indikatorlar asosida O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining "E-Anticor.uz" elektron platformasiga sohada amalga oshirilgan ishlar bo'yicha barcha ma'lumotlar kiritildi. Natijada ushbu baholash reyting tizimida "O'zbekimiyosanoat" AJning faoliyati 89 ball bilan yaxshi deb baholanib, faxrli 4-o'rinni egalladi.

Hisobot davrida "O'zbekimiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalaridagi korrupsion jinoyatlar, noqonuniy o'zlashtirish, rastrata, o'g'irlik, kamomad, qo'shib yozish va boshqa qonunbuzilishlar bo'yicha jami **29 ta** holatlar aniqlanib, ular bo'yicha tegishli tartibda xizmat teshiruvlari o'tkazildi.

Yuqoridagi kabi aniqlangan qoidabuzarlik holatlari bo'yicha jami **6 nafar** xodim jinoiy javobgarlikka tortildi, **12 nafar** xodim egallab turgan lavozimidan ozod etildi, **32 nafar** mas'ul xodimlarga nisbatan turli intzomiy jazolar qo'llanildi, **27 nafar** xodimning ish haqidani jarimalar undirildi.

2023-yilning 1-choragida "O'zbekimiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida aniqlangan korrupsion harakatlar, korxonalar mablag'larining talon-taroj qilinishi oqibatida tizimga jami **5,5 mlrd so'mlik** zarar yetkazilganligi qayd etildi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish lozimki, Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda olib borgan chora-tadbirlari natijasida jami yetkazilgan moddiy zararining **4,5 mlrd so'mga** yaqin qismi undirilishiga erishildi.

Hisobot davrida tizim korxonalarida xaridlar jarayonining ochiq va shaffofligi ta'minlanishi hamda ularni "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun talablariga muvofiq amalga oshirilishi natijasida jami **3,4 mlrd so'mlik** pul mablag'lari asossiz sarflanishining oldi olinib, iqtisod qilindi.

"O'zbekimiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan "Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Nizomi" talablariga muvofiq xizmat vazifasiga ko'ra korrupsiyaviy xavf-xatarlar ehtimoli yuqori va o'rta bo'lgan **8734** nafar xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi yoki mavjud emasligi to'g'risidagi deklaratsiyalar to'ldirildi. To'ldirilgan deklaratsiyalar tahlil qilinganda **75 ta** mas'ul xodimlarda manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligi aniqlandi.

Jumladan, "Maxam-Chirchiq" Ajda **30 ta**, "Navoiyazot" Ajda **19 ta**, "Farg'onaazot" Ajda **18 ta**, "Ammofos-Maxam" Ajda **5 ta**, "Qizilqum fosforit kompleksi" MChJda **3 ta** holatda o'zaro yaqin qarindoshlar bevosita qo'l ostida yoki rahbarligida ishlashi natijasida vujudga kelgan manfaatlar to'qnashuvi holati aniqlandi. Mazkur holatlar yuzasidan ushbu xodimlarni korxonadagi boshqa lavozimlariga o'tkazilish orqali manfaatlar to'qnashuvining oldini olish choralari ko'rilmogda.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi hamda shaffofligini ta'minlash maqsadida hisobot davrida ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlari orqali sohaga oid jami **91 ta** materiallar joylashtirilgan.

Jamiyat va tarmoq korxonalarida ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablarini joriy etish maqsadida "CERT Academy Group" xalqaro trening kompaniyasi mutaxassislarini jalb etgan holda, **12 ta** xodim ishtirokida o'quv kurslari tashkil etilgan.

Tadbir davomida jamiyatda korrupsiyaga qarshi murosasiz kurashish borasidagi ishlarni muntazam va tizimli davom ettirish yuzasidan ko'rsatma va topshiriqlar berildi. Shu bilan birga, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularning oldini olish va chek qo'yish, shuningdek, ushbu illatlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens boshqarmasi tomonidan mazkur sohada ustuvor yo'nalishlar, aniq maqsadlar va vazifalar belgilab olindi.



uzkimyosanoat



uzkimyosanoat.uz



(+99878) 140-74-26



